



**ORTODONTIK MOSLAMALARI BO'LGAN BOLALARDA MILK
YALLIG'LANISHI HOLATIDA IMMUNOMODULATORLARNING
SAMARALI TA'SIRI**

X. O. Dusmuradova

Alfaraganus universiteti NOTT, Toshkent

F. X. Yakubova

Alfaraganus universiteti NOTT, Toshkent

Annotation

It has been found that 55% of children aged 6-15 years with anomalies of the dentofacial system have gingivitis in certain groups of teeth. In orthodontic children and adolescents, the hygienic condition of the oral cavity worsens 1.5 times. The prevalence and intensity of caries in permanent teeth is 1.5-1.65 times higher than in children without dental anomalies. Based on this, the importance of the Imudon immunomodulator, which provides local stimulation of specific and non-specific protective mechanisms of the mucous membrane, is studied.

Keywords: gingivitis, braces, immunomodulator, hygienic index, dental anomalies, Imudon, PMA.

Аннотация

Установлено, что у 55% детей в возрасте 6–15 лет с аномалиями зубочелюстной системы наблюдается гингивит определенных групп зубов. Гигиена полости рта у детей и подростков, находящихся на ортодонтическом лечении, ухудшается в 1,5 раза. Распространенность и интенсивность кариеса постоянных зубов в 1,5–1,65 раза выше, чем у детей без зубочелюстных аномалий. На основании этого изучается значение иммуномодулятора «Имудон», обеспечивающего локальную стимуляцию специфических и неспецифических защитных механизмов слизистой оболочки.



Ключевые слова: гингивит, брекетты, иммуномодулятор, гигиенический индекс, аномалии зубов, Имудон, ПМА.

Dolzarbliigi. Tish-jag' tizimi anomaliyalari bo'lgan 6-15 yoshli bolalarning 55 % da ma'lum tish guruhlarida milk yallig'lanishi holati uchrashi aniqlangan. Ortodontik bolalar va o'smirlarda og'iz bo'shlig'ining gigiyenik holati 1,5 marta yomonlashadi. Doimiy tishlarda kariyes tarqalish va intensivligi tish anomaliyalari bo'lmagan bolalarga qaraganda 1,5-1,65 baravar ko'proq uchraydi. Shundan kelib chiqib, shilliq qavatning o'ziga xos va xos bo'lmagan himoya mexanizmlarini mahalliy stimulyatsiya qilishni ta'minlaydigan Imudon immunomodulyatorining ahamiyati o'rganiladi.

Kalit so'zlar: milk yallig'lanishi, breketlar, immunomodulyator, gigiyenik indeks, tish anomaliyalari, Imudon, PMA.

Maqsad. Paradont to'qimasi kasalliklari, xususan, gingivit bilan og'rigan ortodontik yosh bemorlarda immunomodulyator – Imudonning terapevtik samaradorligini o'rganish.

Materiallar va usullar. 10-15 yoshli gingivit bilan og'rigan 20 nafar ortodontik bolalar (10 nafar qiz va 10 nafar o'g'il bolalar) klinik va mikrobiologik tekshiruvdan o'tkazildi, 10 nafar amalda sog'lom bolalar ham ushbu ko'rikdan o'tkazildi. Bemorlar tasodifiy ravishda har birida 10 nafardan iborat asosiy va nazorat guruhiga ajratildi. Birinchi nazorat guruhida an'anaviy davolash usuli qo'llanildi, u Solkoseril malhamini bint yuzasiga surtib milk yallig'lanish sohasiga qo'yildi. Asosiy guruhdagi bemorlar, antiseptik davolashdan so'ng, ertalab och qoringa va 10 kun davomida preparatning 1-dozasi bilan kunlik til osti pastillari shaklida Imudon bilan davolanishdi. Umumiy holatni aniqlash uchun PMA va Fedorov-Volodkina og'iz bo'shlig'i gigiyena indeksi usullari amalga oshirildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Imudon bilan davolash olib borilgan asosiy guruhda o'tkazgan muolajadan so'ng, PMA darajasi 30,0 % bemorlarda normal,



70,0% bemorlarda gingivitning yengil shakli aniqlandi, og'ir daraja shakli esa kuzatilmadi. Shuningdek, an'anaviy usulda davolash o'tkazilgan nazorat guruhida PMA natijalari quyidagicha kuzatildi: 7 % da – normal, 85 % da – yengil va 8 % da – o'rtacha. Davolanishdan keyingi natijalar shuni ko'rsatadiki, asosiy guruhdagi PMA ko'rsatkichlari nazorat guruhiga qaraganda ancha yaxshi: Imudon preparatini qo'llashda PMA normal diapazonda nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada ko'proq kuzatildi. Xuddi shunday tendensiya Fedorov-Volodkina bo'yicha GI dinamikasini taqqoslashda aniqlandi. Bundan tashqari, asosiy guruhda yaxshi va qoniqarli GI bo'lgan bemorlarning soni 55% ga, bemorlarning nazorat toifasida esa 45 % ni tashkil etdi. Shunday qilib, Imudon preparatini immunomodulyator sifatida qo'llash an'anaviy terapiya bilan solishtirganda klinik va mikrobiologik ko'rsatkichlarning sezilarli darajada yaxshilanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Дхауи Хатем Бен Мохамед Сахби. Усовершенствование антропометрических методов диагностики трансверзальных аномалий зубных рядов и прикуса и терапия заболеваний пародонта при ортодонтическом лечении. Автореф. дис. ... канд. мед. наук: 14.00.21. – Одесса, 2005 – 13 с.
2. Наумович Д.Н. Профилактика кариеса зубов и болезней периодонта у детей в процессе ортодонтического лечения (лабораторно-клиническое исследование): Автореф. дис. ... канд. мед. наук: 14.00.21. – Минск, 2008 – 24 с.
3. Desai H., Gill H., Shankaran K. et.all.// Scand J. Gastroenterol. – 1991, Vol.26.N 11. – P. 1205-1206.
4. Рыбакова Н.А. //Журнал микробиологии. - 1978. - С.127-130.
5. Гулямов С.С., Якубова Ф.Х., Шукурова Г.Р. Болаларда кариеснинг маҳаллий профилактикаси ва тўғри овқатланиш. Илмий - амалий журнал «Педиатрия», Ташкент, 2021, №2, ББ. 204-2010.
6. G. Smiech-Slomkowska, Saud A. Al-Anezia, Nigel W.T. Harradine Quantifying plaque during orthodontic treatment: A systematic review// Angle Orthodontist, 2008.



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th February, 2025

7. Ishanova M.K., Akhmedov A.B., Kodirova M.T., Dusmukhamedov E.Kh., Utesheva I.Z., Yakubova F.Kh. Estimation of the diagnostic value of amino acid composition of oral fluid and blood serum in children with dental erosion and their effectiveness of pathogenetic treatment. // International Journal of Pharmaceutical Research, 2021. PP. 3155-3161.
8. Gaffarov S. A., Saidov A. A., Yakubova F.Kh. An integrated approach to the diagnosis and treatment of a dysfunction of the temporomandibular joint in children and adolescents / / Journal of Critical Reviews, 2020.Vol 7, Issue 17. PP. 77-85.
9. Ф.Т.Махкамова, Ф.Х.Якубова. Изучение роли слюны в поддержании гомеостаза органов полости рта. Medicus International Medical Journal, № 6 (30), 2019. С. 68-71.
10. Gafforov S., Nazarov U., Khalimbetov G., Yakubova F. Centre for the Professional Development of Health Professionals under the Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan. NeuroQuantology, 2022, Vol. 20, Issue 5. PP. 1433-1443. DOI: 10.14704/nq.2022.20.5.NQ22533